

BUYRAKNING YOSHGA DOIR XUSUSIYATLARI

ADU biologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi Yigitaliyev Rasuljon O'ktamboy o'g'li

Annotatsiya: Ko'pchilik qorin sohasidagi og'riqlarni mushak-skelet tizimining muammolari yoki nevrologik tabiat bilan bog'liq deb o'ylaydi. Bu mutlaqo noto'g'ri. Buyrakdagi og'riq qorin bo'shlig'iga tarqalishi mumkin

Kalit so'zlar: Buyrak, ko'krak umurtqasi, rentgenogramma, diafragma

Abstract: Many people think that pain in the abdominal area is related to problems of the musculoskeletal system or neurological in nature. This is completely wrong. Pain in the kidney can spread to the abdomen

Key words: Kidney, thoracic spine, roentgenogram, diaphragm

Аннотация: Многие думают, что боль в области живота связана с проблемами опорно-двигательного аппарата или неврологического характера. Это совершенно неправильно. Боль в почках может распространяться на живот.

Ключевые слова: Почки, грудной отдел позвоночника, рентгенограмма, диафрагма.

Buyrak qondan suyuqlik ajratib chiqaruvchi juft a'zo. U loviyasimon shaklga ega bo'lib, katta yoshdagi odamlarda uzunligi 10-12 sm kengligi 5-6 sm, qalinligi 4 sm, og'irligi 120-200 g bo'ladi. Buyrak to'q qizil rangli bo'lib, oldingi yuzasi qavariq, orqa yuzasi yassiroq bo'lib, yuqorigi uchi, pastki uchi, qavariq lateral chekkasi botiq medial chekkasi tafovut qilinadi. Medial chekkasini o'rtasida oldingi va orqa yuzalari bilan chegaralangan botiqlik, buyrak darvozasi joylashgan.[1]

Ular qishg'ish - qo'ngir rangda bo'lib, umurtqa pog'onasining bel qismida, yani 1-2 bel segmentlari darajasida joylashgan. O'ng buyrak chap buyrakdan 2-3 sm pastda joylashgan. Har bir buyrakning yuqorigi uchida buyrak usti bezlari yotadi. Buyrak darvozasidan buyrak arteriyasi kirsa, buyrak venasi va siydik yo'li chiqadi.[2]. i. O'ng buyrakning yuqori uchi 11 ko'krak umurtqasining pastki chekkasi sohasida, pastki uchi esa 3 bel umurtqa tanasining o'rta sohasida turadi. 12 qovurg'a chap buyrakning orqa yuzasining o'rtasidan, o'ng buyrakning esa yuqori uchidan kesib o'tadi. Buyrakning orqa yuzasi uning pardalari bilan diafragmaga, belning kvadrat mushagi, qorinning ko'ndalang mushagi va katta bel mushshagiga tegib turadi. Uning yuqori uchida buyrak usti bezi joylashgan. Buyrakning oldingi yuzasi qorinparda bilan qoplangan bo'lib, ichki a'zolarida tegib turadi.[3]

Buyrak kesib ko'rganimizda u ikki xil moddadan: tashqi 0.4-0.7 sm qalinlikdagi po'stloq va 2-2.5 sm qalinlikdagi mag'iz moddadan iborat. Buyrakning po'stloq moddasi qizg'ish rangda ko'rinadi. U buyrakning tashqi qavatini hosil qilib qolmay, mag'iz qismi orasiga botib kirib buyrak ustunlarini ham hosil qiladi. Buyrakning po'stloq qismi bir- bilan almashadigan yorug' va qoramtir qismlardan iborat. Qoramtir qismida esa buyrak tanachalari va buralma naychalar joylashib o'ralgan qism deb ataladi [1] Buyrakning mag'iz moddasi 10-15 ta buyrak piramidalaridan iborat. Chap buyrakning yuqori chegarasi XI ko'krak umurtqasi tanasining o'rtasi sohasida, o'nginiki esa uning pastki chekkasi sohasida joylashadi. O'ng buyrakning darvozasi II bel umurtqasi sohasida joylashsa, chap buyrakniki 1-2 sm yuqorida turadi. Rentgenogrammada buyrak ikki turda: keng va tor ko'rinishda uchraydi. U bo'laklardan iborat bo'lib, po'stloq qavati yaxshi rivojlanmagani uchun yuzasi g'adir-budur (2-rasm). Uning

o'rtacha uzunligi 4,2 sm, kengligi qutblar sohasida 2,2 sm, og'irligi 12 g. Ularda po'stloq qavati qalinligi o'rtacha 2 mm, mag'iz qavati 8 mm. Yangi tug'ilgan bola buyragini yuqori uchi XII ko'krak umurtqasini yuqori qirrasida joylashsa, pastki uchi IV bel umurtqasini pastki qirrasida joylashadi. Yog' pardasi yo'q, fibroz pardasi yupqa. Yog' pardasi yaxshi taraqqiy etmagani uchun buyrak harakatchan. Emizikli davrda buyrak o'lchamlari 1,5 marotaba kattalashib og'irligi 37 g yetadi. Bu davrda buyrak ko'ptokchalarini ko'pligi va bir-biriga yaqin joylashganiga qaramay po'stloq qavati yaxshi takomillashmagan, buyrak naychalari yaxshi rivojlanmagan.

Bola hayotining birinchi yetti yilida buyrak bo'yiga va eniga bir tekis o'sadi, shuning uchun u o'zining yumaloq shaklini saqlab qoladi. Bolalikning birinchi davrida buyrakning uzunligi 7,9 sm, kengligi uchlarida 5 sm, og'irligi 56 g bo'lsa, o'smirlarda uzunligi 10,7 sm, kengligi 5,3 sm, og'irligi 120 g ga yetadi. Buyrakning o'sishi asosan bola hayotining birinchi yili, 5-9 yoshlar va 16-19 yoshlarda po'stloq moddasi o'sishi hisobiga bo'ladi. Bu davrlarda po'stloq modda qalinligi 4-marta, mag'iz moddasi esa faqat 2-marta kattalashadi. Yog' pardasi bolalikning birinchi davrida paydo bo'lib, 7 yoshda yaxshi bilinadi. Fibroz pardasi 5 yoshda yaxshi bilinib, 10-14 yoshlarda kattalarnikiga o'xshab qoladi. Yoshga qarab buyrakning joylashishi ham o'zgaradi. Umurtqalar tez o'sgani uchun birinchi yilning oxirida uning yuqori uchi XII umurtqa tanasining o'rtasida bo'lsa, pastki uchi yarim umurtqa yuqori joylashadi. 7 yoshdan so'ng buyrakning umurtqa pog'onasiga nisbati kattalarnikiga o'xshab qoladi. Yangi tug'ilgan bola buyrak jomi keng, ampula shaklida bo'lib, ko'pincha buyrak tashqarisida joylashadi. U 3 yoshlarda buyrak to'qimasi ichiga kiradi.

Buyrak og'rig'ining sabablari:

Bu organlar siydik pufagi va siydik yo'llari bilan bog'langan. Ushbu sohalarning har biri bilan bog'liq muammolar og'riq va noqulaylikka olib kelishi mumkin. Sabablarga quyidagilar kiradi: Buyraklardagi toshlar. Toshlar organizmdagi mineral yoki birikmalarning to'planishi tufayli hosil bo'ladi. Ular qumga o'xshash yoki durdan kattaroq bo'ladi. Kichik toshlar organizmni o'z-o'zidan tark etishi mumkin. Biroq kattaroqlari siydik yo'lga tiqilib qolishi va peshob o'tishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu holda kuchli og'riq paydo bo'ladi. Peshob to'planishi. Ushbu kasallikda odam siydik pufagini to'liq bo'shata olmaydi. Vaqt o'tishi bilan to'satdan yoki asta-sekin sodir bo'lishi mumkin. Siydik pufagi reflyuksi. Bu peshobni pufakdan siydik yo'llariga yoki buyraklarga qaytib ketishiga olib keladi. Patologiya har kimda sodir bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha u chaqaloqlarda va yosh bolalarda uchraydi. Bunday holatda siydik yo'li buyrakka yopishgan joyda tiqilib qoladi. Bu bel sohasida og'riqni keltirib chiqarishi mumkin. Infeksiya (pyelonefrit). Bu holat bakterial infeksiya sodir bo'lganda rivojlanadi. Alomatlar orasida isitma, titroq, belda og'riq, ko'ngil aynishi va qayt qilish kuzatiladi. Polikistik kasallik. Bunday irsiy kasallikka chalingan odamlarda buyraklar ichida suyuqlik bilan to'lgan qoplar (kistalar) mavjud. Kistalarning kengayishi bilan buyraklar kattalashadi va og'riq kuzatiladi. Natijada, ular to'g'ri ishlamasligi mumkin. Shikastlanish yoki jarohat olish. Sport bilan shug'ullanish, baxtsiz hodisalar jismoniy shikastlanishga olib kelishi mumkin. Bu peshobda yoki buyraklar atrofida qon paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Saraton. Buyrak saratonining eng keng tarqalgan turi, buyrak hujayrali karsinoma, odatda 60-70 yoshdagi odamlarda kuzatiladi. Simptomlar peshobda qon, belda og'riq yoki shish paydo bo'lishidir.

Buyraklar qanday og‘riydi: alamatlar belda doimiy, kuchli og‘riq;yon tomonda, ko‘krak ostida yoki qorinda og‘riq;kuchli yoki o‘tkir to‘lqinsimon og‘riq;ko‘ngil aynishi yoki qayt qilish.

Buyraklar yoki bel og‘rig‘ini qanday aniqlash mumkin?

Ko‘pchilik qorin sohasidagi og‘riqlarni mushak-skelet tizimining muammolari yoki nevrologik tabiat bilan bog‘liq deb o‘ylaydi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri.Buyrakdagi og‘riq qorin bo‘shlig‘iga tarqalishi mumkin.U deyarli hech qachon belning pastiga va oyoq-qo‘llarga o‘tmaydi, ularning harakatining cheklanishiga va sezgirlikni yo‘qotishiga olib kelmaydi.Ko‘pchilik qorin sohasidagi og‘riqlarni mushak-skelet tizimining muammolari yoki nevrologik tabiat bilan bog‘liq deb o‘ylaydi. Bu mutlaqo noto‘g‘ri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Ahmedov, X Rasulov „Odam anatomiyasi” Bolalar anatomiyasi asoslari bilan
2. Z.T. Rajamurodov , B.M. Bozorov , A.I. Rajabov, D.G‘.Hayitov „Yosh Fiziologiyasi va gigiyenasi .
3. A.Ahmedov , G. Ziyamutdinova „Anatomiya , Fiziologiya va Patologiya ”
4. Ziyouz .xom